

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

X.Mamajonov

Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning manbashunosligiga doir ayrim fikr-mulohazalar 113

ADABIYOTSHUNOSLIK

X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova

Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari 118

A.Abduraxmonov

Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati 122

B.To'rayeva

Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari 127

N.Karimova

Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi 134

P.Ro'ziboyeva, B.Karimov

Abdulhamid Cho'lpon hikoyalarida ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta'limi masalasi 138

N.Avazov

"Padarkush"ning ta'siri va jadid dramalarining yaratilishi 143

Sh.Axmedova

Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari 151

N.Soatova

Shuhratning masal va hajviy she'r yaratish mahorati 155

Sh.Turg'unov

Harbadoshlarning o'langa nisbatan ta'rifi xususida 162

TILSHUNOSLIK

Sh.Iskandarova, F.Musayeva

Muhammad Yusuf she'rlarida zamon tushunchasining o'rganilishiga doir 168

D.Ganiyeva

Turli tizimdagi tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunksionalligi 171

Sh.Amonturdiyeva

Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari 176

N.Xoshimova

Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi 184

M.Hojiyeva

Terminologik kompetentlik – bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning asosi sifatida 187

V.Giyosova

Bolalarga oid murojaat birliklariga doir mulohazalar 190

S.Ahmadaliyeva

Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida 193

H.Saipova

Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari 197

MATEMATIKA

T.Ergashev, D.Urinboyeva

Ikkinchi tartibli ikki o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida 201

B.Kadirkulov, M.Jalilov

Involutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagi tenglama uchun qo'yilgan teskari masala 209

N.Murolimova

Vazn funksiyasiga ega bo'lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to'lqin tenglamasi uchun chegaraviy masala 214

FIZIKA - TEXNIKA

X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov

Zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish 223

M.Abdullayeva, Sh.Shuxratov

Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o'rganishni pedagogik-psixologik imkoniyatlari 228

SHUHRATNING MASAL VA HAJVIY SHE’R YARATISH MAHORATI
МАСТЕРСТВО ШУХРАТА СОЗДАВАТЬ БАСНИ И САТИРИЧЕСКИЕ
СТИХОТВОРЕНИЕ
THE SKILL OF FAME TO CREATE A PARABLE AND A COMIC POEM

Soatova Nodira Isomitdinovna¹

¹Soatova Nodira Isomitdinovna

– JDPU dotsenti, f.f.nomzodi

Annotatsiya

Ushbu maqola XX asr shoiri va adibi Shuhrat ijodidan o‘rin olgan masal va hajviy she‘rlar tahlil va talqini masalasiga bag‘ishlangan. Maqolada masal va hajviy she‘rning o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Shoirning “Tulki va quyon” va “Qurbaqa” masalining g‘oyaviy mazmuni, ta‘limiy-tarbiyaviy ahamiyati satrma-satr tahlil qilinadi. Masallardagi tuyg‘u – fikr – g‘oya zanjiri ko‘rsatib beriladi. Shuhratning ma‘rifiy g‘oyalar ifodasi talqin etilgan “Bo‘ri edi, tulki bo‘ldi” va “Xira pashsha” hajviy she‘rlarida inson tabiatiga xos bo‘lgan illatni, inson tabiatining zaif tomonlari, nuqsonlari, qusur-kamchiliklari, noto‘g‘ri xatti-harakatlari aniq, o‘tkir hajv orqali ochib berganligi ko‘rsatilgan. Shoirning yuqoridagi masal va hajviy she‘rlari didaktik tarbiyaning muhim vositasi sifatida bashariyatni tarbiyalashga xizmat qilishi isbotlangan. Shuhratning masal va hajviy she‘rlari XX asr adabiy maydonidagi ma‘naviy ibrati bilan hozir ham o‘z ahamiyatini to‘la saqlab qolgan aniqdangan.

Аннотация

Данная статья посвящена анализу и интерпретации басен и сатирических стихотворений из творчества поэта и писателя XX века Шухрата. В статье раскрываются уникальные черты басен и сатирических стихотворений. Построчно анализируется идейное содержание и воспитательное значение басни поэта «Лиса и Кролик» и «Лягушка». Показана цепочка чувство-мысль-представление в баснях. В сатирических стихотворениях «Волк был волком, стал лисой» и «Хира Пашша», которые трактуются как выражение воспитательных идей Шухрата, злого свойства человеческой природы, слабостей, пороков, пороков человеческой природы, Показано, что его поведение раскрывается через ясный, острый юмор. Доказано, что приведенные выше басни и сатирические стихотворения поэта служат воспитанию человечества как важный инструмент дидактического воспитания. Определено, что басни и сатирические стихотворение Шухрата с их духовным значением в литературном среде XX века полностью сохранили свое значение.

Abstract

This article is devoted to the issue of analysis and interpretation of parable and comic poems, which included the work of the poet of the 20th century and adibi Fame. The article reveals the specific features of the parable and the comic poem. The ideological content, educational and educational significance of the poet's parable "The Fox and the rabbit" and "the Frog" are analyzed line by line. The sense – thought – idea chain in the parables is shown. The comic poems "was a wolf, became a Fox" and "pale fly", in which the expression of enlightened ideas of Fame is interpreted, are shown to reveal the vice inherent in human nature, the weaknesses, defects, flaws, incorrect behavior through a clear, sharp comic. It has been proven that the above parable and comic poems of the poet serve to educate humanity as an important tool of didactic education. It is established that the parable and comic poems of Fame fully retain their significance even now, with their spiritual example in the literary field of the XX century.

Kalit so‘zlar: masal, hajv, allegorik, obraz, majoz, tuyg‘u, g‘oya, kinoya, motiv, illat, nuqson, munofiqlik, didaktik tarbiya, ma‘naviyat.

Ключевые слова: басня, сатира, аллегорический, образ, метафора, чувство, идея, ирония, мотив, дефект, порок, лицемерие, дидактическое воспитание, духовность.

Key words: parable, pilgrimage, allegorical, image, metaphor, feeling, idea, irony, motive, vice, defect, hypocrisy, didactic upbringing, spirituality.

KIRISH. O‘zbekiston xalq yozuvchisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, vafotidan so‘ng “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan Shuhrat (Alimov G‘ulom Aminjonovich)ning sermahsul ijodi bugunda kitobxonlarga yaxshi ma‘lum. Ayniqsa, ijodkorning “Mehrol”, “Orzu va qasos” poemalari, “Bizning ko‘cha”, “Hayot nafasi”, “Qardoshlar”, “Sening sevging”, “Ishqingda yonib”, “Lirika”, “Bemalol yashasam bo‘ladi” she‘riy to‘plamlari, “Shinelli yillar”, “Oltin zanglamas”, “Jannat qidirganlar”, “Mashrab”(tugallanmay qolgan) romanlari, “Besh kunlik kuyov”, “Qo‘sha qaringlar”, “Ona qizim” kabi dramalari adabiyotshunoslar tomonidan munosib kutib olingan va o‘zining ijobiy bahosini olgan.

Ushbu maqolada nazm, nasr va dramaturgiyada barakali ijod qilayotgan Shuhrat masal va hajviy she'rlarga nima uchun qo'l urdi, ijodkorning masal va hajviy she'r yaratishdan maqsadi nima bo'lgan? Shoir yaratgan masallar uning ijodida qanday ahamiyat kasb etadi?,- degan masalalarga e'tiborimizni qaratamiz.

*Men o'tib ketaman, sen keyin qolib,
Haqimda rost so'zni aytib yur, she'rim!
Do'stimning bag'riga boshingni olib,
Raqibga tosh qahrim otib tur, she'rim! [10;13],-*

deya kuylagan, sinovli, hayot mashaqqatlariga to'la yillarni boshdan o'tkazgan shoir qalbidagi og'riqli iztirob-u alamlarni she'rlarining qat-qatiga sig'dira olmaganidan bo'lsa kerak, tuyg'u – fikr – g'oya zanjiri asosida masal janri va hajvga ham murojaat qilgan, nazarimizda. Avvalo, shoir masallari haqida so'z yuritishdan oldin, masal janri haqida qisqacha to'xtalishni maqsadga muvofiq ko'rdik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Masal – axloqiy-ta'limiy maqsadlarni ko'zlovchi kichik allegorik she'riy hikoya bo'lib, unda insonga xos turli salbiy xususiyatlarni kulgi ostiga olish yo'li bilan axloqiy-ta'limiy, nasihatimiz fikrlar olg'a suriladi. Allegoriya badiiy adabiyot va san'atdagi tasviriy usullardan biri bo'lib, ijodkor majoziy obrazlar orqali asar yaratadi.

Majoz asosiga qurilgan janrlardan biri masal bo'lib, "Masal (arab.- namuna, misol)- didaktik adabiyot janri hisoblanadi. Ta'limiy xarakterdagi, aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy shakldagi asar. Masallarda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, munosabatlar qushlar, hayvonlar orasidagi munosabatlar va tabiat hodisalari vositasida aks ettiriladi. Mazmuni majoz asosiga quriladi, komiklikning va kinoyaning, ijtimoiy tanqid motivining ustunligi masalga hajviy ruh bag'ishlaydi [12]. Ko'pchilik masallarda odamga xos qusur va illatlar hayvonlar, parrandalar, baliqlar obrazi orqali ko'rsatiladi. Allegoriya ertaklardagi kabi masallarda ham hayvonlarga xos bo'lgan ko'pchilikka ma'lum xususiyatlar, masalan tulkining ayyorligi, bo'ringning ochko'zligi, eshakning ahmoqligi, quyonning qo'rqqoqligi, sherning qudratligi, bulbulning xushovozligi tarzida maydonga keladi. Masal mazmuni ko'pincha siqiq, o'tkir va kichik voqea orqali ifodalanadi. Masalga xos bunday syujet unda ifodalanayotgan mazmun ruhiyatini aniq-ravshan yuzaga chiqarish, allegorik shakl esa asardagi personajlar xarakterini qiyosiy yo'l bilan yorqin ko'rsatishga olib keladi. Masallar inson tabiatini, o'y-kechinmalarini o'ziga xos rakursda, kulgining g'oyaviy-estetik mohiyati va badiiy xilma-xil funksiyasi orqali ko'rsatishga xizmat qiladi.

Demak, shoirlarning masal yozishdan asosiy maqsadlari allegorik obrazlar orqali o'zlarining didaktik mazmundagi fikrlarini majoziy usulda bildirish bo'lgan. Zero, ijodkor "...mahorat, malaka, tug'ma iste'dodlari tufayli bo'yoqlar va shakllar yordamida ko'p narsalarning tasvirini yaratadi" [2;20]-ekan, undan ko'zlangan muallif maqsadi asarlari orqali dunyo yuzini ko'radi. Xususan inson muammolarini hal etish uchun, avvalo, uni yot illatlar va qusurlardan tozalash kerakligini anglagan Shuhrat ijodida masal va o'tkir hajviy she'rlar shunday asarlar sifatida yaratildi. Shu bois shoirning asarlari, hamma zamonlar uchun taaalluqli bo'lib qolaveradi, unda olg'a surilgan didaktik g'oyalar, vaqti o'tishi bilan o'zining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati zarracha o'zgarmaydi. Shuhratning "Tulki va quyon" masalini mana shunday umri boqiy asarlarga kiritish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Darhaqiqat, munofiqlikni o'ziga libos qilib olgan ayrim kimsalarining timsoli bo'lgan tulki holati yuqoridagi fikrimizni to'liq asoslaydi. O'zidan kuchsiz quyonni tutib olib, uni sabzi o'g'irlashda ayblagan tulki, shu bilangina qanoatlanmay, unga qattiq jazo berish kerakligini uqtirishini, shoir o'zining tabiiy sodda, ohangi xalqchil, ravon misralarda bayon etadi:

*Tulki tutib Quyonni shu on,
Atrofiga yig'di olomon.
Va dedi u: - Shu gazzob Quyon,
Qo'shni bog'da sahardan buyon,
Sabzi yeydi o'g'irlab hamon.
Nomus axir! Chidar qanday jon!
Mana uni tutib keltirdim,
Qattiq jazo berilsin derdim! [10;454]*

“...Ilho

m kelsa, obrazlar yetilsa, ijodkor uchun ish vaqti, ish soati yo‘q. Asar ilhom bilan yozilsa, obrazlar o‘z-o‘zidan gavdalanadi, hatto o‘zining qiladigan ishini, aytadigan gapini yozuvchiga aytib, luqma solib turadi [1;474-475]. Ilhomni ijodkorga hayotning o‘zi taqdim etadi. Zero, shoir ushbu masalidagi tulkisimon odamlarni hayotda ko‘p ko‘rgan. Ularning o‘z so‘zlari bilan aytganda “adolat” ostida qiladigan “jirkanch, tuban” ishlari necha-necha begunohlarni abgor qilayotgani, albatta, shoirni iztirobga solgan, dilidan tiliga solib, ularni shu bois tulki timsolida yoritishga harakat qilgan.

*Tol shoxida o‘ynardi chittak,
Quloq solib turdi-da jittak,
Hayrat bilan Tulkiga boqib,
Nafratidan titrab, tutoqib,
Pastga uchib tushdi-da, shu on [10;454].*

Matnda tasvirlanishicha, ko‘rinishdan juda kichik bo‘lgan tol chetida o‘ynab o‘tirgan chittak qush tulkining qilayotgan razilona ishiga qarshi chiqishda o‘ziga kuch topa oladi va unga qarshi bosh ko‘taradi. Shoir chittak misolida insonni fikrlashga, hayot, uning mazmun-mohiyati haqida mushohada qilishga undaydi:

*Dedi unga: - Kecha-ku Arslon,
Yeganida o‘g‘irlab buzoq,
Axir qarab turding-ku uzoq!
Na dod solding va na bir nido,
Go‘yo burchin etardi ado!
Go‘yo uning bu ishi yoqib,
Turar eding so‘laging oqib!
Lablaringda bordi tabassum,
Axir buni ko‘rdim men o‘zim!
Qachondan sen nomusli bo‘lding,
Adolatli, hak so‘zli bo‘lding! [10;454].*

Chittakning o‘zini “adolatpesha” sanagan tulkiga qo‘rqmay aytgan so‘zlari, kishini o‘yga toldiradi va xalqimiz yaratgan “boyning o‘g‘li qilsa sho‘xlik, kambag‘alniki jinoyat” qabiladagi naqlni yodga soladi. Shuningdek, “...Eng emotsional poeziya ham vazifa va mohiyat e‘tibori bilan siyosiy masaladir, she‘r – shoirning ijtimoiy vijdoni”[3;9],- ekanligini she‘r xulosasidan anglab olish mumkin. Zero, bu masalni yozishidan maqsad munofiqlikni o‘ziga to‘n qilib olgan insonlarga nisbatan, shoirning nafrat va alam hayqirig‘i deb tushinish lozim.

*Bu masalning mantiqi ayon:
Munofiqlik hammadan yomon! [10;454].*

Ma‘lumki, badiiyatda “...inson kechinmalari – bu uning real hayotining sub’yektiv tomoni, shaxs umr yo‘lining ob’yektiv aspektidir”[7;13]. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, shoir ruhiyatidagi ma‘lum voqelik sabab qalbdan kechgan iztiroblar, og‘riqlar, fikr va hislar oqimining rivoji Shuhratning “Tulki va quyon” masalini estetik jihatdan yuksak va mazmundor qatlamni hosil qilgan, deyish mumkin.

Shoirning “Qurbaqa” masali ham mazmun-mohiyat jihatdan, shoirning yuqoridagi masalidan qolishmaydi. Buning sababi, ta‘kidlaganimizdek, ko‘tarilgan masala va mavzu barcha insonlarga xos bo‘lgan xususiyatlar ekanligidadir. Masalda badiiy tasvirning muhim vositalaridan biri portret “Qurbaqa” masalida qahramon ruhiyatini ochishda katta rol o‘ynagan.

*Odam bo‘lgan ekan bir vaqt Qurbaqa,
Kelishgan, xushbichim, gap-so‘zga chechan.
Otlarda ucharkan qoqdirmay taqa,
Suhbatda pahlavon, tanti, ko‘ngilchan!
Bir kuni nogihon tildan ilinib,
Podshoning qahriga bo‘libdi duchor.
Beshafqat o‘limga hukm qilinib,
Bozorning boshiga qurilibdi dor.
Dod solib yig‘labdi shunda u odam,
Yolvorib o‘rtaga qo‘yibdi kishi[10;442].*

Keltirilgan parchada ayonki, bir vaqtlar odam bo'lgan qurbaqa, ko'rinishdan *“Kelishgan, xushbichim, gap-so'zga chechan., Suhbatda pahlavon, tanti, ko'ngilchan”* ekanligi aytiladi. Bu uning tashqi qiyofasi tasviri. Lekin, dono xalqimizda shunday maqol bor “usti yaltiroq, ichi qaltiroq”. Shoir qalamga olgan lirik qahramon esa xuddi shunday “usti yaltiroq, ichi qaltiroq”lardan. Shu o'rinda aytish joizki, “Badiiy asarda portretning vazifalari turlicha bo'ladi. Biroq portretning eng muhim xarakteri, uning ko'proq psixologik portret bo'lishidadir”[9;27]. Psixologik portret shoirga qahramonning tashqi qiyofasi orqali uning ruhiy dunyosini ochishga yordam beradi. Podshoning qahriga duch kelgan ko'rinishdan e'tiborga molik bo'lgan odamning ong-u tafakkurida katta bir burilish, tubanlik sari o'zgarish hosil bo'lganini, shoir uning o'z so'zlari orqali namoyon qiladi. Mana uning ichki dunyosi, ma'nan qiyofasi:

*“Mayli men shahriga qo'ymayman qadam,
Shu bo'lsa shohimniig istak-xohshpi.
It bo'lib hurishga roziman hatto,
Qurbaqa bo'l desa, roziman, mayli,
Iltimos, jonimdan qilmasin judo,
Bir parcha yumshoq et- tilim tufayli!”
Podshoh kulibdi, O'ylab qarasa,
Osishga arzimas jo'n odam ekan!
G'azabdan titragan xaloyiq esa
Qo'rqoqqa otibdi gul emas, tikan! [10;442].*

Shoir masalni yozishdan oldiga qo'yan maqsadi, nazdimizda, yuqoridagi misralar qatidan o'rin olgan. Ya'ni, shoir uchun eng og'ir yuk, o'lim emas, aslida el nazar-e'tiboridan qolishdir. Shoir “It bo'lib hurishga roziman hatto, Qurbaqa bo'l desa, roziman, mayli” deya jonini saqlab qolgan kimsani podshoning qahridan omon chiqsa ham, el-u yurtning qarg'ishi va eng oliy kuzatuvchi zot Yaratganning jazosiga mahkumligini aytar ekan, qurbaqa aylangan insonlarning hayoti ibrat bo'lmoqligi lozimligini shoirona misralarga mohirona singdiradi:

*Elu yurt qo'rqoqdan yuz o'giribdi,
Qo'rqoqni tutibdi elning qarg'ishi.
Kechqurun odamdek yotgan bu kishi,
Ertalab Qurbaqa bo'lib turibdi!
Vaqillab yurarmish o'shandan beri,
Ochilib el aro qo'rqoqlik siri! ([10;442].*

Shuhrat ijodini boshqa ijodkorlar yaratilqlaridan ajratib turadigan muhim xususiyat - xoh she'riyatda, xoh nasrda, xoh masallarida bo'lsin, qariyb barcha asarlarida, xira pashsha, xoin qurbaqa va tulkisimon kimsalarni fosh qiladi. Ulardan hazar qilib, chin insoniylik xislatlarini madh etadi. Inichun, shoir barcha janrdagi asarlarida o'z qalbini jarohatlagan xoinlik va yomonlik, shuningdek o'zi uchun ideal hisoblangan sadoqat va yaxshilik mavzusiga qayta - qayta murojaat qiladi, shu bois bu mavzu uning asarlarida bosh mazmun va yetakchi leytmotivga aylangan.

Shuhrat hayotda uchraydigan voqea-hodisalardan ularni ruhan boyitadigan mazmun - ma'no topishga harakat qilgan. Ma'lumki, hayotda qanday inson bo'lish kerak, degan savolga har doim ham to'g'ri javob topib bo'lmaydi, chunki har kim hayotni o'z qarichi bilan o'lchaydi. Ba'zilar kim zo'r bo'lsa, odatda o'sha kuchli, deb hisoblashadi. Ammo hayot shunday murakkab narsaki, har qanday zabardast, polvon kishining ham bu kurashdan iborat maydonda yengilishi hech gap emas. Shoarning ma'rifiy g'oyalar ifodasi talqin etilgan “Bo'ri edi, tulki bo'ldi” hajviy she'ri ana shu masalaga oydinlik kiritadi:

*Ismi edi Alijon polvon,
Polvonlikdan bir ish chiqmadi.
Qay maydonga bo'larkan ravon,
Bir kishini halol yiqmadi.
Bo'ri kabi chang soldi goho,
Goh bo'ridek bosib yiqitdi.
Bo'lsa hamki barcha norizo,
U o'zini g'olibdek tutdi[10;451].*

ADABIYOTSHUNOSLIK

Shoir Alijon polvon obrazi timsolida, xudbin, pastkash, nafs balosi quli, hamma narsaga bir paytning o'zida erishaman deb o'ylagan ochko'z, jirkanch kimsa qiyofasini yaratadi. Alijon polvon ma'nau qashshoq, o'z nafi, hoy-u havasi yo'lida hech qanday tubanlikdan qaytmaydigan, polvon nomiga munosib bo'lmagan badkirdor, gumroh. Agar Alijon polvon, bizning zaminimizdan yetishib chiqqan ko'plab allomalar, adib va shoirlarimizning asarlarini uqib, o'qib, mutolaa qilganda, o'z hayot yo'lini bunday sharmandalik ustiga qurmagan bo'lar edi. Zero, birgina Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"ida nafsning yomon oqibatlariga olib kelishi haqida bir qancha ibratli fikrlari borki:

*Nafs yo'lig'a kirgan kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldan ozib, toyib, to'zib gumroh bo'lur,-
Yoki:
Nafsim meni yo'ldan urib xor ayladi
Termultirib xaloyiqqa zor ayladi. –[4;20].*

Yassaviyning nafs haqidagi xulosalari shuki, nafs - ichki dushman, lekin dushman bo'lsa ham, juda katta dushman. U insondagi butunlikni sindiradi. Unga tobe bo'lish, yengilish natijasida insondagi ma'naviy osoyishtaliklar barham topadi. Alijon polvon esa Yassaviy ta'biri bilan aytganda, nafsga qul bo'lib, hayotini izdan chiqargan kimsa. Inson zoti yaralibdiki, yaxshilik, ezgulik bilan birga yomonlik, tubanlik yashab keladi. Har bir inson, avvalo yaxshilik nima-yu, yomonlik nima farqiga borishi, o'z ongi, aql-u farosati bilan anglab olishi kerak, yo'qsa Alijon polvon holiga tushishi hech gap emas.

*Bora-bora ismi yoniga
Bo'ri so'zi qo'shilib qoldi.
Bu shum lahab tegib joniga,
Hiyla qilish yo'lini oldi.
Hiyla bilan bitmadi ishi,
Hiyla bilan bo'lmadi polvon[10;451].*

Haqqoniylik asar mazmunining yoki obraz mohiyatining salmoqdorligi, boshqacha aytganda, konseptualligi orqali belgilanar ekan, "Bo'ri edi, tulki bo'ldi" she'ri hajviy xarakterda bo'lib, shoir Alijon polvon xarakterida uchrovchi illatlarni she'rda ayovsiz fosh etadi. Shuningdek, shoir hajv vositasida tanqid qilish bilan birga, hiyla qilish inson uchun foydali emas, balki zararli qusur ekanligini obrazli qilib ko'rsatishga harakat qiladi.

*Endi uni ko'rgan har kishi
"Ali tulki shu!" – deydi hamon.
"«Ali tulki» demasa uni
Bu atrofda hech kim bilmaydi.
Bilganlar ham g'irrom polvonni
Tulki deya, izzat kilmaydi.
Polvonlikdan nomi qolmadi,
Avval bo'ri, so'ng tulki bo'ldi.
Polvonligin el tan olmadi,
Oxirida bir kulgi bo'ldi! [10;451].*

Shuhrat she'rlarini mutoala qilish jarayonida shunday xulosaga kelish mumkinki, "Shoirlik – nurga, ma'naviy yorug'likka intilish. Shoir – olamni oydin haqiqatlarda ko'rib, yorug' hissiyotlarda qalam tebratadigan shaxs, tashqi dunyonigina emas, u insonning ichki olami ham nurli bo'lishi dardida yashaydi"[11;162]. Darhaqiqat, bu fikrlar bevosita Shuhrat ijodiga ham taalluqli. Shoir asarlaridagi she'riy obrazlar orqali, munofiqlik, xudbinlik, qo'rqqoqlik, zarakurandalikka nafrat, muhabbatga da'vat va oliy tuyg'uni ulug'lash, asosiy o'rin tutishini ko'ramiz.

Binobarin, "...badiiy asar sarlavhasining ixcham, lo'nda, betakrorligi matnning pishiqligidan, sistemaning mustahkamligidan nishona", deb hisoblaydigan bo'lsak, shoirning "Xira pashsha" hajviy she'ri o'zini to'laqonli oqlaydi. Shu o'rinda, yana shuni alohida qayd etish kerakki, "Inson va uning tabiati, ruhiyati haqiqatni kashf etishda hech bir soha adabiyot bilan tenglasha olmaydi va uning o'rnini bosolmaydi"[5;98]. Albatta, hajviy she'rlar ham bundan mustasno emas. Shoirning ushbu she'ri ham inson tabiatiga xos bo'lgan illatni ko'rsatishga bag'ishlangan.

*Uyga kirib qolibdi nogoh,
Qayerdandir xira bir pashsha.*

*Endi boshim qo'ygan edim, oh,
U boshladi rosa xarxasha! [10;443].*

She'r mazmun-mohiyatidan ko'rinib turibdiki, pashsha obrazi orqali shoir xirapashsha, zararkuranda insonlarni tasvirlashga harakat qiladi. Zero, shunday kimsalar borki hayotda, ularni foydadan ko'p zarari tegishi yetmaganday, "tegmaganga ham kesak otadigan" xunuk qiliqlari bor. Bunday insofsiz kimsalar na eshitadi, na bu odatdan voz kechadi.

*Goh labimga qo'nadi kelib,
Goh burnimga, goho quloqqa.
Ko'zim ochsam ushlamoq bo'lib,
Uchib ketar allaqayoqqa!
Ko'z yumdimmi, yana keladi,
Yana qo'nar yuz-ko'z, qoshimga.
Yo g'ing'illab xonish qiladi,
Shu atrofda tegib g'ashimga[10;443].*

Shuhrat hayoti davomida juda ko'p xirapashsha insonlarga duch kelgani tabiiy, buni shoirning boshidan kechirgan hayoti to'liq isbotlaydi. Demak, tom ma'noda "ljodkor qalami ostidan chiqqan haqiqiy san'at namunasi – mo'jizakor badiiy asar matni"[6;17],-ekanligi aniq. Bunga she'rni o'qish davomida shohid bo'lamiz.

*- Bor-ey!- dedim boshimni burkab,
Ko'zim yumsam tushga kiribdi.
Tushimda ham xira muttaham,
Labim uzra qo'nib turibdi!
Ta'bim xira, uyg'ondim cho'chib,
Harom bo'ldi tushki uyqu ham.
Pashsha esa yuribdi uchib,
Xonam ichra - na qayg'u, na g'am! [10;443].*

XULOSA. Shoir aytmoqchi bo'lgan "...ifodaning istiorali usuli, ya'ni so'z ma'nosini boshqa predmetga ko'chirish, shama, kinoya yoki ramzlarning yaratilishi"[8;143]ni she'rning so'nggi to'rtligida ko'rish mumkin. Ya'ni, lirik qahramon g'ashiga tekkan pashshani ushlab, o'ldirib, o'ligini derazadan uloqtirib yuboradi va shu bilan o'ziga ozor yetkazayotgan mahluqotdan osongina qutiladi. Lekin shoirni iztirobga solgan, o'yga toldirgan narsa boshqa, ya'ni pashshadek yo'lidan olib tashlashi mumkin bo'lmagan "pashshasifat kimsalar"ning hayotda uchrashi. Bu inson uchun og'ir musibat. Unday kimsalar bir umr hammaga ozor berib, g'ashiga tegib yashaydi. Shoir shundan afsus nadomat chekadi:

*Bu bir pashsha. Oxiri ushlab,
Derazamdan otdim o'ligin.
Pashshasifat odamlar uchrab,
-Qolsa bormi hayotda lekin... (10;443)*

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Shuhrat masal va hajviy she'rlari orqali inson tabiatining zaif tomonlari, nuqsonlari, qusur-kamchiliklari, noto'g'ri xatti-harakatlari aniq, o'tkir hajv orqali ochib beradi. Shuhratning yuqoridagi masal va hajviy she'rlari, hech ikkilanmay aytish mumkinki, didaktik tarbiyaning muhim vositasi sifatida bashariyatni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois shoir masallari XX asr adabiy maydonidagi ma'naviy ibrati bilan hozir ham o'z ahamiyatini to'la saqlab qolgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. 6-т.-Т.: Узадабийнашр, 1971.
2. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Т.: Янги аср авлоди, 2011.
3. Асқад Мухтор. Шеър – шоирнинг ижтимоий виждони. Парфи Рауф. Сабр дарахти.– Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
4. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. Нашрга тайёрловчи И.Ҳаққул. -Т.: Фофур Фулом номидаги нашриёт. 1990.
5. Норматов У. Умидбахш тамоиллар. –Т.: Маънавият, 2000.
6. Каримов Б. XX аср ўзбек адабиётшунослигида талқин муаммоси (қодирийшунослик мисолида): Ф.ф.д., илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т.: 2002.
7. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. – Питер, 2000.
8. Тамарченко Н.Д. Теория литературы. – М.:Академа, 2004.
9. Шодиев Н. Руҳият рассоми. – Тошкент, 1977.

ADABIYOTSHUNOSLIK

10. Шухрат. Танланган асарлар. 3 жилдлик, 1-жилд. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1978.
11. Ҳаққул И. Мушоҳада ёғдуси. II. – Т.: Тафаккур, 2019.
12. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/masal-uz/>

REFERENCES

1. Abdulla Qahhor. Asarlar. 6-t.-Т.: Uzadabiynashr, 1971.
2. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – Т.: Yangi asr avlodi, 2011.
3. Asqad Muxtor.\ She'r – shoirning ijtimoiy vijdoni. Parfi Rauf. Sabr daraxti.– Т.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
4. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Nashrga tayyorlovchi I.Haqqul. -Т.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot. 1990.
5. Normatov U. Umidbaxsh tamoillar. –Т.: Ma'naviyat, 2000.
6. Karimov B. XX asr o'zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi (qodiriyshunoslik misolida): F.f.d., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Т.: 2002.
7. Rubinshteyn S. L. Основы общей психологии. – Piter, 2000.
8. Tamarchenko N.D. Teoriya literatury. – М.:Akadema, 2004.
9. Shodiyev N. Ruhiyat rassomi. – Toshkent, 1977.
10. Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3 jildlik, 1-jild. -Т.: Adabiyot va san'at, 1978.
11. Haqqul I. Mushohada yog'dusi. II. – Т.: Tafakkur, 2019.
12. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/masal-uz/>